

**MAKTAB O‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK-HUQUQIY TA’LIM-TARBIYA
BERISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINI
AXAMIYATI**

Oygu Xolmuminova Jumayevna

Termez davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun huquqiy bilimlarni ko‘rgazmali o‘rgatishga qaratilgan o‘quv qo‘llanmalarini, ta’lim muassasalari uchun huquqqa oid fanlari bo‘yicha o‘quv darslik va qo‘llanmalarini tayyorlash choralari ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

***Tayanch tushunchalar:** Oilada ekologik huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borish o‘quvchilar tabiat to‘g‘risidagi va ekologik qonunlar talablarini o‘rganadil.*

Mustaqil yillarida mamlakatimizda yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yilni “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilindi va mazkur yilni bunday deb nomlanishi, oilada ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borilishini zamon talabi darajasida olib borilishini ham taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yil 7 fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. “Unda xotin-qizlar qo‘mitasi, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari yillar mobaynida faqatgina turli tadbir va yig‘ilishlar o‘tkazish bilan cheklanib, ijtimoiy vaziyati og‘ir oilalar, ayollar va yosh-qizlarga chinakam yordam berish bo‘yicha samarali faoliyat olib bormagan.

Buning oqibatida joylarda ko‘plab masalalar to‘planib qolgan, ularning yechimi bo‘yicha aniq manzilli ishlar amalga oshirilmaganligi”,- alohida ta’kidlandi.

“Yoshlarimizning hayotiy muammolariga yanada ko‘proq e’tibor qaratish, ularga mos bo‘lgan zamonaviy ish o‘rinlarini ko‘paytirish, ezgu intilish va tashabbuslari, innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodimizning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash bundan buyon ham barcha darajadagi davlat idoralarining eng asosiy, hal qiluvchi vazifasi bo‘lib qoladi” - deb ta’kidlagan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur g‘oya yurtimizda ekologik muammolarni oldini olish, ekologik qonunchilikni takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga hamda o‘quvchilarni ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyasini yanada oshirishga ham taalluqli. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma’qullangan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni unga ko‘ra, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila-sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, bu sohada normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yilgi qaroriga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasining ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi”ni qabul qilinganligi, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son farmoni bilan tasdiqlangan, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi”ni qabul qilinganligi bu borada olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilanganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va unda jumladan, o‘quvchilarga ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya berish bilan bog‘liq quyidagi bir qator kamchiliklar mavjudligi e’tirof etildi:

Birinchi, maktabgacha ta’limni boshqarishning amaldagi holati tizimli muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohada, jumladan, nodavlat sektorda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti; ikkinchi, maktabgacha ta’lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga, jumladan, ijtimoiy-hammabop maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish, ularni moddiy-texnik jihatdan qayta jihozlash va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinmagan; uchinchi, maktabgacha ta’lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining amaldagi holati bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bilan to‘liq qamrab olishni ta’minlashga imkon bermayapti, mamlakatda aholi sonining o‘sishi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarining haddan tashqari bandligiga olib kelmoqda; to‘rtinchi, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o‘yinlar va o‘yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi; beshinchi, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta’lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlay olmaydi; oltinchi, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tizimining past darajada ekanligi malakali kadrlarni jalb qilish imkonini bermayapti; yettinchi, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha hududiy sog‘liqni saqlash organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, shu jumladan, sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelishligi alohida ko‘rsatildi.

Bugungi kunda Prezident”.....yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o‘quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishlikni alohida ta‘kidlab o‘tdi. Yuqorida ko‘rsatilgan konseptual g‘oyaga asosan, maktab o‘quvchilariga ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiya berish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi model asosida ko‘rsatilgan:

1.Oilada ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyani olib borilishi yoshlarni tabiatga, atrof-tabiiy muhit va uning boyliklarini sevishga, muhofazalash hamda bundan oqilona foydalanishdagi dastlabki ekologik huquqiy ongini, taffakurini hamda tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Oila masalasini kompleks o‘rganib, mavjud holatni tahlil etish, monitoring qilish va baho berishga, ilmiy tadqiqotlar orqali oila farovonligini oshirishga xizmat qiladigan yangi tizim yaratildi”... Albatta, bu borada belgilangan chora-tadbirlarning mazmuni, sifati va samarasini oshirish uchun hali ko‘p ish qilishimiz kerak. Bugungi kunda izchil amalga oshirilayotgan “Obod qishloq” va “Obod mahalla”, “Yoshlar-kelajagimiz”, “Har bir oila-tadbirkor” kabi dasturlar ayni shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatli”.

2.Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyani olib borilishi esa, yosh bolalarni oilaga nisbatan ekologik huquqiy ongi, taffakurini ancha shakllanganidan dalolat beradi. Bu yoshda bolalarimiz o‘z qilmish oqibatlarini yaxshilik va yomonlikka yo‘naltirilganligini tushuna oladilar. Shuningdek, yangi avlod huquqiy darslik va o‘quv qo‘llanmalari tizimini yaratish. Zero, bu jarayon oiladagi ijobiypsixologik- pedagogik holatlarni davomi bo‘lib, oilada ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyani olib borilishini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Maktab davrida yoshlarimiz ancha mukammal jarayon, ya‘ni, ular “tabiat, jamiyat, inson va texnika” o‘rtasidagi mutanosiblik holatida o‘zlarini aniq tushunadilar. Ular 1-9-sinflarda olgan boshqa fanlarga oid bilimlarni ekologik-

huquqiy ta'lim va tarbiya bilan bog'lab olib boradilar. Ayniqsa, bu yoshdagi o'quvchilar tabiat to'g'risidagi va ekologik qonunlar talablarini o'rganadilar. Demak, oilada o'quvchilarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borishda aynan demografik, migratsion, iqtisodiy-hududiy (geografik) va ekologik hususiyatlar inobatga olinishi lozim.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizning yo'limiz-demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Inson va qonun, 2011 yil 8 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yil 7 fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi. // Xalq so'zi, 2018 yil 8 fevral.

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2019. -40 b.

5. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, Xalq so'zi, 2016 yil, 15 sentabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2018 yilgi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2018 yil, 3 fevral.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori. // Xalq so'zi, 2017 yil, 9 sentabr.